

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.A.Abduraxmonov</b>	
Adabiy asardagi nurning xususiyatlari va funksiyalari (O'zbek lirikasi namunda).....	460
<b>A.B.Kosimova</b>	
O'zbek adabiyotida hikoya va drabllar.....	469
	TILSHUNOSLIK
<b>M.Y.Mamajonov</b>	
Muloqotni boshqarishda lisoniy va nolisoniy vositalarning o'rni.....	473
<b>R.M.Shukurov, G.S.Jo'raboyeva</b>	
Farg'ona viloyati toponimlarining sotsiolingvistik xususiyatlari.....	477
<b>Z.V.Alimova</b>	
Navoiyning "Saddi iskandariy" dostonidagi "Haroson" so'zi va uning morfologik belgilari xususida.....	483
<b>F.X.Qosimova</b>	
O'zbek tilshunosligida tibbiy terminologiya bo'yicha tadqiqotlar: sifat va miqdor tahlili.....	488
<b>A.A.Ergashev</b>	
Etnotoponimlar tadqiqi.....	496
<b>H.Sh.Radjabova</b>	
Terminologik lug'atlar tadqiqiga doir.....	502
<b>S.A.Jabborova</b>	
Morphological and syntactic analysis of the structure of medical terminology in the English and Uzbek languages.....	507
<b>Sh.R.Amonturdiyeva</b>	
Diniy uslub shakllanishining antropotsentrik va kognitiv asoslari.....	511
<b>D.I.Mirzayeva</b>	
Tillardagi turg'un o'xshatishlarning umumlingvistik statusi.....	517
<b>X.F.Xaydarova</b>	
Taqlid so'zlarning statistik tahlili (O'zbek tilining ikki va besh jildli izohli lug'atlari misolida).....	520
<b>M.A.Hojiyeva</b>	
Filolog mutaxassislarda terminologik kompetentlikni rivojlantirishning ahamiyati.....	524
<b>I.A.Egamberdiyeva</b>	
Metafora - til, madaniyat va ma'naviyat ko'zgusi.....	527
<b>D.I.Mirzayeva, X.R.Mirzayeva</b>	
O'zbek va Ingliz tillaridagi frazeologik birliklarda o'lchov so'zlarning qo'llanilishi.....	531
<b>Z.Sh.Ashurova</b>	
Badiiy matnning lingvopoetik xususiyatlari va muallif individual uslubi talqini.....	535
<b>I.T.Hojaliyev, G.S.A'zamova</b>	
Adekvatlik va uni ta'minlovchi nolisoniy va lisoniy omillar.....	539
<b>Z.M.Sobirova</b>	
Til va ong munosabati L.S.Vigotskiy psixologik talqinida.....	545
<b>V.A.Vositov</b>	
So'z o'zlashtirish tillararo aloqani yuzaga keltiruvchi sotsiolingvistik omil sifatida.....	550
<b>M.T.Abdupattoyev, X.P.Shodmonov</b>	
Konvergensiya va uning sintaktik-stilistik funksiyasi.....	557
<b>D.I.Khodjaeva</b>	
Lingvodidaktika va metodika terminlari tavsifi, farqli jihatlari.....	562
<b>O.M.Yusupova</b>	
Ingliz va O'zbek maishiy ertaklaridagi asosiy tushunchalarni ifodalovchi leksemalarning semantik tahlili.....	567
<b>M.V.Nasridinov</b>	
"Maqsad" konsepti maydonida yotuvchi ingliz tilidagi morfemalarning qiyosiy tadqiqi.....	572
<b>M.O.Batirkhanova</b>	
Lexicographic analysis of somatisms in different languages.....	577
<b>M.U.Mamadjanova</b>	
Interpretation of epithetic compounds in linguistics.....	582
<b>M.V.Nasridinov</b>	
Ingliz va O'zbek tillarida "Maqsad" konseptining morfologik struktural, semantik tahlili.....	586
<b>M.Y.Madiyeva</b>	



UDK: 811.512.133'373.21

## ETNOTOPONIMLAR TADQIQI

## ИССЛЕДОВАНИЕ ЭТНОПОНИМОВ

## RESEARCH OF ETHNOPONYMS

Ergashev Abduhalim Abdujalilovich 

Andijon davlat universiteti, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Annotatsiya**

Maqolada bog'ish komponenti asosida yuzaga kelgan bag'ish, qorabag'ish, cho'ngbag'ish, sarbag'ish, ko'kbag'ish, uchbag'ish, arbag'ish etnotoponimlarning tarixiy-etimologik tahlili haqida fikr yuritilgan. Tadqiqot va kuzatishlarimiz natijasida o'zbek xalqi etnik tarkibiga singib ketgan urug'-qabila nomlari hamda bu nomlar asosida yuzaga kelgan joy nomlarini alohida olingan hududlar bo'yicha tadqiq qilish maqsadida etnotoponimlarning nomlanish jihatlaridagi o'ziga xosliklar ilmiy adabiyotlarda berilgan manbalar asosida tahlilga tortildi. Shu bilan birga, turkologiya va o'zbek tilshunosligidagi toponimik, onomastika, lingvogeografiya, areal tilshunoslik, nomshunoslik masalalariga bag'ishlangan ilmiy kuzatishlar va metodlarga tayanildi.

Izlanishlar davomida bag'ish toponimi totem sifatida urug' nomi hamda toponim tarzda qo'llanilganligi o'z isbotini topdi. Maqolaning yakunida xulosa qilib aytish mumkinki, bag'ish leksemi bug'ular yoki bug'ularga mansub ma'nolarini ifodalagan holda "totem" sifatida urug' va joy nomiga ko'chgan bo'lib, cho'ngbag'ish bag'ish urug'ining katta bir bo'lagini, sari(q)bag'ish bag'ish urug'iga tegishli asilzodalikni yoki boy badavlatlikni, qorabag'ish va ko'kbag'ish etnonimlari ma'no jihatidan urug'larning joylashish o'rnini ifoda etganligi xulosa qilindi.

**Аннотация**

В статье рассматривается историко-этимологический анализ этнотопонимов Багиш, Карабагиш, Чонбагиш, Сарбагиш, Кокбагиш, Чбагиш, Арбагиш на основе связующего компонента. В результате наших исследований и наблюдений на основе источников, приведенных в научной литературе, проанализированы особенности этнотопонимов в аспектах именования с целью изучения названий родов и племен, заложенных в этническом составе узбекского народа, а также топонимов, которые образовались на основе этих названий в отдельных регионах. При этом опирались на научные наблюдения и методы, посвященные вопросам топонимики, ономастики, лингвогеографии, ареального языкознания, номенологии в тюркологии и узбекского языкознания.

В ходе исследований было доказано, что топоним Багиш использовался как родовое имя и топоним как тотем. В конце статьи можно сделать вывод, что лексема Багиш переместилась в название рода и заняла место в качестве «тотема», выражающего значение оленя или оленя, Чонбагиш означает большую часть рода Багиш, сари(қ) багиш означает знать или богатое богатство, принадлежащее роду Багиш, Карабагиш и Кокбагиш, был сделан вывод, что этнонимы по смыслу выражали местонахождение родов.

**Abstract**

The article discusses the historical and etymological analysis of the ethnotoponyms Bagish, Karabagish, Chongbagish, Sarbagish, Kokbagish, Chbagish, Arbagish based on the connecting component. As a result of our research and observations based on sources given in the scientific literature, the features of ethnotoponyms in terms of naming were analyzed in order to study the names of clans and tribes embedded in the ethnic composition of the Uzbek people, as well as toponyms, which were formed on the basis of these names in individual regions. At the same time, they relied on scientific observations and methods devoted to issues of toponymy, onomastics, linguogeography, areal linguistics, nomenclature in Turkology and Uzbek linguistics.

In the course of research, it was proven that the toponym Bagish was used as a family name and the toponym as a totem. At the end of the article, it can be concluded that the lexeme Bagish has moved into the name of the clan and has taken its place as a "totem" expressing the meaning of deer or deer, Chongbagish means most of the Bagish clan, sari(q) bagish means to know or rich wealth belonging to the Bagish clan, Karabagish and Kokbagish, it was concluded that the ethnonyms in their meaning expressed the location of the clans.

**Kalit so'zlar:** afsona, affiksatsiya usuli, urug' nomi, etnonim, etnik guruh, etnotoponimlar, etimologiya, totem, bag'ish.

**Ключевые слова:** легенда, способ фиксации, родовое имя, этноним, этнос, этнотопонимы, этимология, тотем, багиш.

**Key words:** legend, method of affixation, clan name, ethnonym, ethnic group, ethnotoponyms, etymology, totem, bagish.

## KIRISH

Dunyodagi har bir xalq, millatning tili, urf-odatlari, kiyinishi o'ziga xos, ayricha bo'lgani singari ular tomonidan qo'yilgan toponimik nomlar ham turlichadir. Aynan bir xil, takrorlangan joy nomlarini dunyo tillarida uchratish mushkul. Ular o'zining ixchamligi, keng iste'molda bo'lishi, tarjima qilinmasligi bilan tildagi boshqa so'zlardan farqlanib turadi. Masalan, Ungut, Saroy, Do'lan, Munduz, Sulduz, Qurama, Jaloyir kabi joy nomlarini rus, ingliz, nemis tillariga yoki, aksincha, rus, ingliz, nemis tillaridagi Slavyan, Kelt, Sakson, Gelvet, Vestgot, Ostgot, Ink, Atstek, Mayya kabi qabila nomlarini o'zbek tiliga tarjima qilish mumkinmi? Aslo yo'q! Boisi ularda xalqlarning ko'p asrlik tarixi, urf-odatlari, madaniyati va san'ati yashirinib yotibdi. Shu ma'noda toponimlarni, xususan, uning eng yirik tarmog'i hisoblangan etnotoponimlarni tadqiq qilish bizga qimmatli ma'lumotlarni beradi.

Kuzatishlarimiz natijasi shuni ko'rsatadiki, o'zbek xalqi etnik tarkibiga singib ketgan urug'-qabila nomlari hamda bu nomlar asosida yuzaga kelgan joy nomlarini alohida olingan hududlar bo'yicha tadqiq qilish, ularning atoqli otlar tizimida tutgan o'rnini belgilash, kelib chiqish ildizlarini aniqlash, lug'aviy-ma'noviy, morfologik va so'z yasalishi jihatlariga ko'ra tahlil qilish, areal kartalarini yaratish hamda etimologiyasini ochish orqali tarixning biz uchun qorong'i bo'lib yotgan sahifalarini yoritish imkoni tug'iladi.

Tarixga nazar tashlasak, o'zbek millati uzoq va murakkab tarixiy jarayonlarda turli xalqlarga mansub bo'lgan qabila hamda urug'larning o'zaro aralashib, qo'shib ketishi natijasida shakllanganligini ko'ramiz. Xalqimiz ichida turkiy xalqlarga mansub bo'lgan qoraqalpoq, uyg'ur, qirg'iz, qozoq, tatar, turk millat vakillari bilan birga fors-tojik, arab, rus, lo'li, mo'g'ul, koreys kabi boshqa xalq vakillarini uchratishimiz mumkin. Ma'lumki, o'zbek xalqining millat bo'lib uyushuvida ko'plab etnik guruhlar o'z ulushini qo'shgan va bu guruh nomlari, ularning madaniyati, tili, xalqimiz o'tmishini yaratishda muhim manba hisoblanadi. Ushbu etnik guruhlar nomi va shu asosda yuzaga kelgan joy nomlarini tadqiq qilishda etnotoponimlar alohida o'rin tutadi.

Ma'lumki, hozirda Farg'ona vodiysi hududida O'zbekistonning uchta (Andijon, Namangan, Farg'ona), Qirg'izistonning uchta (O'sh, Jalolobod, Batkent), Tojikistonning bitta (So'g'd) ma'muriy viloyatlari joylashgan.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Farg'ona vodiysida o'zbeklar bilan yonma-yon va hatto aralashib yashab kelayotgan qirg'iz xalqining etnomadaniy aloqalar tarixi qadim davrlarga borib taqaladi. Tarixiy manbalardan ayon bo'ladiki, qadimgi turkiy etnoslardan biri hisoblangan qirg'izlarning ajdodlari azaldan Tyan-shanning shimoliy hududlaridan tortib, to YEnisey (Enasoy) daryosigacha bo'lgan keng sahro va dashtlarda ko'chmanchilik bilan kun kechirganlar. XVI asrda ularning ayrim etnik guruhlarini Farg'ona vodiysi hududlariga ham kelib joylasha boshlaganlar. XVII-XIX asrlarda ko'pgina qirg'iz urug'lari Farg'ona vodiysining tog', tog'oldi hamda adir yonbag'irlaridan o'z chorvalari uchun yaylov sifatida foydalanganlar. Bu yerga asosan Tyan-Shan, Chotqol, Oloy, Qorategin va Qashg'arda yashagan qirg'izlar kelib joylashganlar [1.6-7; 6.359; 11.505].

O'tmishda qirg'izlar uchun ham barcha ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi xalqlar kabi urug'-qabilaviy tuzilish xarakterli bo'lgan. Qirg'iz urug'lari ham xuddi o'zbek urug'lari singari joy nomlariga urug'-qabilalar nomlarini singdirganlar. Chunki joy nomlari unutilmas bebaho tarix oinasidir. Bu nomlarning har biri ostida o'sha davr kishilarining o'ziga xos hayot tarzi yotadi. Quyida biz Qirg'iz urug'laridan biri bo'lgan va Andijon, Namangan, Farg'ona viloyatlari hududlarida uchraydigan "bag'ish" komponentli etnotoponimlarning lisoniy-etimologik xususiyatini ochib bermoqchimiz.

1. Mavjud ilmiy adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, qirg'izlar uchta yirik guruhlariga birlashganlar: "o'ng" qanot qirg'izlari, "so'l" qanot qirg'izlari hamda "ichkilik" qirg'izlari. Huddi shu urug'chilik tamoyillari asosida qirg'izlar ma'lum bir hududlarda, xususan, Farg'ona vodiysida hayot kechirishgan. Vodiyning shimoliy qismida qirg'izlarning "o'ng" qanot guruhiga kiruvchi *sayoq, jedigar, bag'ish, saribag'ish, mongoldar* hamda "so'l" qanot guruhiga mansub *sari, basiz, qushchi, chonbag'ish, qiyot, munduz* kabi urug'-qabilalari joylashgan bo'lib, janubiy qismida asosan "ichkilik" guruhiga kiruvchi *qipchoq, nayman, teyt, kesak, jookesak, qondi, bo'ston, naygut, avot, tuyalas* kabi urug'-qabilalar, sharqiy hududlarida esa "ichkilik" guruhiga kiruvchi *bo'ston, qipchoq, tayit,*

*nayman, mungush, kesak* hamda “o’ng” va “so’l” guruhiga mansub *bag’ish, mongol, munduz, bassiz* urug’lari istiqomat qilishgan.

Maqola ob’ekti hisoblangan “*Bag’ish*” etnonimining shajaraviy etimologik jihatiga e’tibor beradigan bo’lsak, u qirg’izlarning ichkilik bo’limiga qarashli o’ng qanot urug’laridan birining nomidir [17.160].

Qirg’iz xalqining genetik kelib chiqishini o’rgangan tadqiqotchilar bag’ishlarni qadimgi 40 ta katta urug’lar qatoriga qo’shadilar. S.M.Abramzon ham *Bag’ish* urug’ini qirg’izlarning kelib chiqish ildizi birikmasiga kirgan qadimgi urug’lar qatoriga qo’shgan [10.42]. Bundan tashqari, Qirg’iz urug’lari ichida Cho’ngbag’ish, Saribag’ish, Qorabag’ish, Uchbag’ish, Ko’kbag’ish urug’lari tarkiban *bag’ish* urug’i asosida yuzaga kelgan bo’lib, nomlanish tarkibidagi komponenti ham bunga mos keladi.

*Bag’ish* urug’i haqidagi tarixiy ma’lumotlarga qaraganda [4; 17; 27.31-58,88], urug’ vakillari qadimda Sibir va Oltoy o’lkalarida (keyinchalik, Shimoliy Qirg’iziston va Talas vodiysida) istiqomat qilgan bo’lib, chorvachilik, yilqichilik, ovchilik bilan shug’ullanganlar.

*Bag’ish* so’zining etimologiyasi Bag’ish (bag’ish) Los [17.58] ning (Bug’u yoki uning bir turi) o’sha davrda turkiy halqlar tomonidan aytilishiga to’g’ri keladi hamda ovchilik va chorvachilik (bug’uchilik) bilan shug’ullangan urug’ totemi sifatida ifodalanadi.

Ma’lumki, (nomshunoslikda) ilk urug’chilik davrida yuzaga kelgan nomlanish asosida totemistik tasavvurlar yotgan bo’lib, unga ko’ra ma’lum urug’ va qabila a’zolari biror hayvon, o’simlik yoki predmet bilan qandaydir aloqador hisoblangan va bu aloqa qarindoshlik deb tushunilgan. Shu asosda o’sha hayvon, o’simlik yoki narsa muqaddaslashtirilgan va unga sig’inishgan. Urug’- qabilalarni nomlashda totemik qarashlarga suyanish turkiy va mo’g’ul xalqlari orasida yuzaga kelgan qadimiy an’ana hisoblangan. G.N.Patanin tomonidan berilgan ma’lumotga ko’ra Sibir leksemasi ham mo’g’ulcha *subr* – “*tog’ bo’risi*” ma’nosini anglatadi [9. 126] yoki Abdulg’ozi Bahodirxon o’zining “Shajarayi tarokima” asarida O’g’uzxonning nevaralari, avlodi uchun totem hisoblangan Burgut, Ukki, Qarg’a, Shunqor, Lochin, Xumoy kabi qush nomlarini keltiradi [3.22].

Andijon viloyati etnotoponimlari tarkibida *tuyachi, baliqchi, takalar (takali), tuyalas, bo’rilik, qarg’a, hakka, bahrin, munduz, bag’ish* kabi etnonimlar mavjud bo’lib, ular ham totem sifatida muqaddaslashtirilgan jonivorlar nomini anglatuvchi so’z asosida yuzaga kelgan. Lekin hamma etnonimlarni ham aynan totem asosida yuzaga kelgan deb bo’lmaydi, chunki bu etnonimlarning kelib chiqishi hali etimologik jihatidan to’la o’rganilganicha yo’q.

*Bag’ish* – (Los// Bug’u [18, 217; 23, 86] - bug’ular oilasiga mansub butoq shoxli hayvon) hayvonlarning katta guruhi bo’lib, unga Shimol bug’usi, Uzoq Sharq izyubri, Sibir marali, Buxoro bug’usi (Xon bug’i), Shimoliy Amerikadagi Virginiya bug’ulari hamda los va lan kiradi. Bular ichida eng chiroylisi shimol bug’ularidir. Shimol xalqlari qadim zamonlardan xonaki bug’ularni ko’paytirib kelgan, chunki ular *qo’y, sigir, ot* kabi barcha uy hayvonlarining o’rnini bosgani holda, bu hayvon juda ham qadrli va muqaddas hisoblangan.

#### NATIJALAR VA MUHOKAMA

2. Afsonalarga ko’ra, Sibirda YEnisey (Enasoy) bo’yida qirg’iz qabilasi yashar edi... Urug’ va qabilalar o’rtasidagi o’zaro jangda kutilmaganda dushman qirg’iz urug’ning barcha aholisini qirib, yashayotgan ovulini vayron qiladi. Taqdir taqozosiga ko’ra (o’rmonga qo’lsavat uchun po’stloq shilgani chiqqan) ikkita go’dak (7-5 yoshlardagi) bolalar tirik qoladi... Ertasiga g’alabani nishonlayotgan dushman bolalarni o’ldirishni xohlamaydi va Cho’tir Baymoq ismli kampir bolalarni Enasoy daryosiga oqizib yubormoqchi bo’lganida, Shoxdor ona bug’u tomonidan bolalar qutqarib olinib, voyaga yetkaziladi... Bolalar voyaga yetgach, turmush qurishadi, ularning to’ng’ich farzandiga ona bug’u shohida beshik olib keladi, bug’u sharafiga bosh farzand ismi Bug’uboy (*Bag’ish*) deb ataladi [24. 54]. Shu asosga ko’ra ham qadimiy qirg’iz urug’larida *Bug’u* muqaddas hayvon sanalgan (hatto Bug’uboy avlodlari bug’uga duch kelgan joyda otdan tushib, unga yo’l berishardi. Oshiqlar suygan qizlarini suluvlikda go’zal oq bug’uga qiyos qilishardi.) hamda totemistik tasavvurlar asosida muqaddaslashtirilgan.

*Bag’ish* so’zining talaffuziga e’tibor qaratadigan bo’lsak, ushbu etnonimning affiksatsiya usulida yuzaga kelganini ko’rish mumkin. Ma’lumki, affiksatsiya usulida affikslar vositasida turli so’z turkumlariga mansub lug’aviy asoslardan sodda yasama etnonim (etnotoponim) hosil qilinadi.

## TILSHUNOSLIK

Nom asosi hisoblangan *bagi* til taraqqiyoti davomida *bug'u* shakliga kelib qolgan. Turkiy tillarda unli fonemalar *o – u* (lablangan unli), *i – u* va undosh fonemalarning *g – g'* mosligi, ya'ni o unlisining *u* ga, *i* unlisining *u* ga, *g* undoshining *g'* ga o'tishi yoki buning aksi ko'p kuzatiladi. *g, g'* – jarangli portlovchi, ikkinchisi sirg'aluvchi, biri sayoz til orqa, yana biri chuqur til orqa undoshlar. Sof turkiy so'zlarda anlautda kelmaydi. *g* tovushining so'z oxirida kelishi ham chegaralangan. *g'* undoshi so'z o'rtasi va oxirida keng qo'llangan. Masalan: A > O > U; *ot* ~ *at*, *son* + a ~ *sana*, *ong* + la ~ *angla*, *qorin* + dosh ~ *qarindosh*, *tovuq* ~ *tuvuq*,

I > U; *soviq* ~ *sovuq* ~ *suvuq*, *urish* ~ *urush* kabi.

U > I; *qovuuq* ~ *quvuq* ~ *qaviq*, *uchush* ~ *uchish* kabi

G > Q > G'; *bagish* ~ *baqish* ~ *bag'ish*, [19.41; 15.35; 21.46; 2.12].

Ma'lumki, **-sh (ish)** qo'shimchasi. Qadimiy qo'shimcha bo'lib, turkiy tillarda otlashgan fe'l shakllari va fe'ldan fe'l hosil qilishda ifodalangan. Bu morfema tarixiy qo'lyozmalarda **-u(-sh)//-ush, -i(-sh) // ish, ush//ish** shakllarda uchraydi. Urug' va qabilalar nomlari orasida **-sh (-ish)** bilan tugagan *bag'ish, begish, batash // batosh, boltash, tavnosh, ukrash, chasgash* etnonimlari uchraydi.

**-sh (ish)** qo'shimchasi ba'zi ishlarda jamlangan, ko'plik ("sobiratelnoy mnojestvennost") ma'nosini ifodalaydi deb talqin qilingan va qadimiy turkiy yush (tog' o'rmoni), *yig'ash // ag'ach* (daraxt), *ogush* (urug' qabila) so'zlarida mana shu ma'no mavjud deb hisoblanadi [19.13-14].

Hozirgi o'zbek adabiy tilida **-sh (ish)** qo'shimchasi fe'l o'zak-negiziga qo'shilgan holda ish harakatning nomini bildirib, zamon va shaxs-sonni ko'rsatmaydigan fe'l shakli, ya'ni harakat nomini hosil qiladi.

*bag'i // bug'i* so'zi ot so'z turkumiga mansub bo'lgani holda, **-sh (ish)** qo'shimchasi jamlangan, ko'plik ma'nolarini ifoda etadi: *bag'i // bug'i, bag'i+ sh // bug'i+lar* singari. Ma'lumki, **-lar** qo'shimchasi o'zi qo'shilgan so'z anglatgan tushunchaga ko'plik, miqdoran ortiqlik ma'nolaridan tashqari jamoaviylik, urug'ga mansublik ma'nosini ham beradi. Masalan: qipchoqlar – qipchoq urug'iga mansub kishilar, qirg'izlar – qirg'iz millatiga mansub bo'lganlar tarzida tushunish mumkin.

3. Nom ko'chishining onomastik xususiyatiga ko'ra *bag'ish* va *bag'ish* komponentli etnotoponimlarning o'sha hududda yashovchi aholi tomonidan yozib olingan etimologiyasiga qaraydigan bo'lsak, hozirda quyidagi holat yuzaga kelgan.

Ma'lumki, etnotoponimlar o'zbek tilidagi nomlar tizimning eng qadimiy qatlamlaridan biri hisoblanadi. V.A.Nikonov etnotoponimlarning paydo bo'lishi xususida shunday fikr yuritgan edi: «Asosida etnonim yotuvchi toponimlar, agar ular o'sha hududda yashamaydigan kishilar tomonidan berilmasa, etnik kelib chiqishida umumiylik bo'lgan bir xalq yashovchi joylarda yuzaga kelishi mumkin emas. Odatda, etnonimlar aholining etnik mansubligini farq etuvchi belgi vazifasini bajaradigan joylarda etnotoponimga aylanadi [14.13].

Bundan anglash mumkinki, faqat bir urug'ga mansub kishilar yashaydigan joyda hych qachon etnotoponim vujudga kelmaydi. Ko'pincha, qabilalar yonma-yon yashaydigan chegara hududlarda aholi tarkibining eng ko'p yoki eng kam qismini tashkil etgan urug'lar nomi ko'p holda toponimga aylanadi. Buni Farg'ona vodiysi hududidagi etnotoponimlar yuzasidan to'plangan ayrim joy nomlarining etimologiyasida ham ko'rishimiz mumkin.

Masalan: 1. Xonobod shahri, Marhamat, Asaka, Izboskan, Chortoq (Namangan vil.) tumanlaridagi *Bag'ish, Cho'ngbag'ish, Qorabag'ish* mahallalarida boshqa joydan ko'chib kelgan, qirg'iz millatiga mansub aholi *Cho'ngbag'ish* nomi ostida etnik jamoa sifatida birlashgan, ya'ni *Cho'ngbag'ish* so'zi orqali avval etnik nom keyinchalik, joy nomi tushunilgan.

2. Andijon, Paxtaobod, Oltinko'l, Shahrixon, Dang'ara, Buvayda (Farg'ona vil.), Norin (Namangan vil.) tumanlaridagi *Cho'ngbag'ish* mahallasi etimologiyasi esa, aksincha, birgina oilaning *bag'ish* yoki *bag'ish* komponentli urug' tarkibidan ko'chib kelib, o'rnashib qolganligidan *Cho'ngbag'ish* deb nomlangan. Nom orqali ko'rishimiz mumkinki, etnos vakili (shaxs yoki oila) millat, urug', qabilaga nisbatan bo'lak vazifasini o'taydi. Bu esa sinekdoxaga xos xususiyatni yuzaga keltiradi.

Vaqt o'tishi bilan joy nomlari turli o'zgarishlarga uchrashi va yangi-yangi toponimlar vujudga kelishi mumkin. Bizning fikrimizcha, joyga nom bo'lgan so'z o'sha joyning eng muhim xususiyatlarini anglatmasligi ham mumkin yoki barcha joylar uchun umumiy bo'lgan xususiyat joy nomi bo'la olmasligi mumkin, aksincha, o'sha joyda yashovchi birgina urug' vakili orqali etnos nomi



joy nomiga o'tishi mumkin. Masalan, Andijon, Paxtaobod, Oltinko'l, Shahrixon, Marxamat (Qorabag'ish) Dang'ara, Buvayda, Norin tumanlaridagi *Cho'ngbog'ish* mahallalari etimologiyasida hozirda shu holat kuzatiladi. Bundan tashqari, bu joylarda nom bilan bog'liq etimologiyalarda tadqiq qilinayotgan nomlarni etnotoponim emas, boshqa asossiz narsalar bilan bog'langan variantlilik asosidagi xalqona (yolg'on) etimologiyalar yuzaga kelgan.

Xulosa qilib aytganda, ushbu etnonim yuqoridagi so'zlar asosida bag'ish so'zining "totem" sifatida urug' va joy nomiga ko'chishi orqali yuzaga kelgan. Ya'ni *bug'u* ma'nosidagi so'z avval etnonim sifatida urug' nomiga ko'chgan, keyin urug' nomi bo'lgan so'z o'sha qabila yashayotgan joy nomiga o'tgan. Bundan ko'rinib turibdiki, nom asosida *bag'ish* va bir qator urug'larning qadimda qaysi kasb-kor bilan mashg'ul bo'lganini ham bilib olishimiz mumkin.

Har qanday etnonimning o'z ma'nosi, kelib chiqishi haqidagi etimologiyasi bor. Ba'zi bir etnonimlar qadimiy so'z bo'lganidan ma'nosini tushunish qiyin. Odatda, qabilalar, yirik urug'larning nomlari qadimiy bo'ladi. Qirg'iz urug'lari ichida *Bag'ish* komponenti asosida yuzaga kelgan *Cho'ngbag'ish*, *Saribag'ish*, *Qorabag'ish*, *Uchbag'ish*, *Ko'kbag'ish* urug' nomlari ham mavjud.

*Cho'ngbag'ish* – etnotoponimi hozirda Andijon viloyatining Marhamat, Izboskan, Andijon, Oltinko'l, Paxtaobod, Asaka, Shahrixon tumanlarida hamda Namangan viloyatining Chortoq va Norin tumanlari, Farg'ona viloyatining Buvayda tumanlaridagi aholi yashash punktlarining nomi sifatida qayd qilingan.

*Cho'ngbag'ish* – etnonim sifatida qirg'izlarning chap (so'l) qanot qabilalari tarkibiga kiruvchi urug'lardan birining nomi bo'lib, V.P.Nalivkin *cho'ngbag'ish* urug'ini *bag'ish* urug'ining bir tarmog'i [14.13] deb ko'rsatib o'tadi. A.N.Aristov qirg'izlarning bu ikki urug'ini o'zaro yaqin deb hisoblaydi [4.5; 5.351-440].

Hozirgi o'zbek adabiy tilida so'z yasashda, jumladan, etnotoponimlarni yasashda keng va faol qo'llaniladigan usullardan biri kompozitsiya usulidir. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, qo'shma so'zlar tarixan so'z birikmalaridan o'sib chiqqan. Til taraqqiyoti jarayonida so'z birikmasi qismlarining ma'no va grammatik jihatdan yaxlitlik kasb etib, qismlar orasidagi sintaktik munosabatning yo'qolishi natijasida sintaktik birlikdan lug'aviy birlikka aylanadi – qo'shma so'z yuzaga keladi [26.76].

Tadqiq qilinayotgan *Cho'ngbag'ish* leksemasi *Cho'ng* va *bag'ish* komponentlari asosida yuzaga kelgan bo'lib, *cho'ng* // *katta*, *bag'ish* // *bug'u* ma'nolarini anglatgan holda *bag'ish* urug'ining katta bo'lasi yoki *cho'ng* (ena, katta ona ma'nosida) *bag'ish* // ona *bug'u* ma'nolarini anglatadi.

Bundan tashqari, Mahmud Koshgariyning "Devonu lug'otit turk" asarida ham "bag'ish" so'zi ishlatilgan va u "barmoq va boshqa a'zolar bo'g'ini", "qamish va shunga o'xshash narsalarning bo'g'ini" degan ma'noni ifodalashi aytilgan. Asarning keyingi sahifalarida "bo'g'im//bo'g'in" so'zlariga nisbatan ham shunday ta'riflar berilgan. Shundan kelib chiqsak, *bag'ish* komponentli *Cho'ngbag'ish*, *Saribag'ish*, *Qorabag'ish*, *Uchbag'ish*, *Ko'kbag'ish* etnonimlaridagi *cho'ng* (katta-ma'nosida), sari(q), qora, ko'k (quyida etnonimlarni ranglar asosida yuzaga kelishiga alohida to'xtalinadi) komponentlari urug'larning ma'lum bir bo'g'inlari, bo'limlari ma'nosida qo'llangan bo'lishi mumkin. Masalan: *Cho'ngbag'ish* // *Katta bo'g'im*, urug'ning katta qismi ma'nolarini ifodalaydi.

*Saribag'ish*, *Qorabag'ish*, *Ko'kbag'ish* etnotoponimlari tarkibida rang ma'nosini ifodalovchi komponentlar tasodifan yuzaga kelmaganini quyidagi misollarda ko'rish mumkin:

Ma'lumki, turli ranglar va ular haqidagi totemik, mifologik, diniy, badiiy, falsafiy tushunchalar o'tmishda turkiy xalqlar hayotida muhim o'rin tutgan. Bu haqda tarixiy manbalar, etnografik adabiyotlarda anchagina fikrlar mavjud bo'lib, ranglar turkiy tillarda ba'zi ramziy ma'nolarni anglatadi.

Bu haqda K.Shoniyozov shunday yozadi: «Qadimgi davrlarda Oltoy va Janubiy Sibirda yashagan turkiy qabilalar shimol, janub, sharq, g'arbni ranglar nomi bilan ataganlar. Qora rang shimolni, qizil rang janubni, ko'k rang sharqni, oq rang g'arbni, sariq rang markazni bildirgan. Ma'lum bir qabila ittifoqida bo'lgan kishilarning tomonlarga qarab joylashishi odat tusiga kirib, vaqt o'tishi bilan tomonlarning nomlari (rang nomlari) etnonim bo'lib qolgan»[25.145-146]. Demak, yuqoridagi etnonimlar tarkibida rang bildiruvchi so'zlar o'tmishda urug'ning joylashish o'rni yoki dunyo tomonlarini aniqlash maqsadida qo'llanilgan. *Saribag'ish*, *Qorabag'ish*, *Ko'kbag'ish* etnotoponimlari rang bilan bog'liq ma'noni anglatgan holda, *Saribag'ish* "markazda, o'rtada

## TILSHUNOSLIK

yashagan bag'ishlar", boshqa urug'lar esa markazga nisbatan olingan tarzda quyidagicha ifodalangan. *Qorabag'ish* "shimolda yashagan bag'ishlar", *Ko'kbag'ish* "sharqda yashagan bag'ishlar" ma'nolarini ifoda etadi.

Ayni paytda, mazkur komponentlarni faqat rang-tusni bildiruvchi so'zlar deya olmaymiz, chunki ularning ayrimlari xususiyat bildiruvchi so'zlardir [7.83]. Masalan, *sariq* so'zi – oqsuyak, aslzoda, boylik, mol-mulk, dabdaba ma'nolarini ifodalagan holda bag'ish urug'iga tegishli asilzodalikni yoki boy badavlatlikni bildiradi.

*Qora* so'zi esa ulkan, katta degan ma'nolarni bildirib, bu asosida yuzaga kelgan *qorabog'ish*, *qorateyit*, *qorabo'yin* etnonimlari *bag'ish*, *teyit*, *bo'yin* urug'larining ulkan, katta bo'laklari deganidir. Z.Do'simovning ta'kidlashicha, *qora* so'zi Xorazm shevalarida etnonim va toponim tarkibida ko'plik ma'nosini anglatadi [8.33].

## XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, *bag'ish* leksemasi *bug'ular* yoki *bug'ularga* mansub ma'nolarini ifodalagan holda "totem" sifatida urug' va joy nomiga ko'chgan bo'lib, *cho'ngbag'ish* bag'ish urug'ining katta bir bo'lagini, *sari(q)bag'ish* bag'ish urug'iga tegishli asilzodalikni yoki boy badavlatlikni, *qorabag'ish* va *ko'kbag'ish* etnonimlari ma'no jihatidan urug'larning joylashish o'rnini ifoda etadi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullayev U. O'zbek-qirg'iz etnomadaniy aloqalari // Jamiyat va boshqaruv.- 2004.- № 2
2. Abdurahmonov G'., Rustamov A. Qadimgi turkiy til.- T., 1982
3. Abulg'ozzi Bahodirxon. Shajarai tarokima. – T., 1995.
4. Абрамзон С.М. Труды Киргизской археолого-этнографической экспедиции // Известия АН СССР. IV том.- М., 1960,
5. Аристов Н.А. Заметки об этническом составе тюркских племен народностей и сведения об их численности // Живая страна. Вып.III-IV.- СПб., 1896.
6. Valixonov Ch.Ch. Qirg'izlar haqida. Qirg'izlar. – Bishkek, 1999.
7. Doniyorov X. O'zbek xalqining shajara va shevalari. –T., 1968.
8. Do'simov Z. Shimoliy Xorazm toponimlari: filol. fanlari nomzodi... dis. – T., 1970.
9. Do'simov Z., Egamov H. Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati. –T.: O'qituvchi, 1977.
10. Karayev O'. Kirgiz elining tuzilishi // Материалы международного симпозиума по случаю 1000-летия эпоса "Манас".- Bishkek, 1996 .
11. Mo'ldaboyev I. Qirg'izlarning etnik madaniyatining paydo bo'lishi. // Qirg'izlar.- Bishkek, 1999.
12. Наливкин В.П. Краткая история кокандского ханства. – Казан, 1886.
13. Nafasov T. O'zbek urug' va qabilalarining nomlanishida tamg'aning roli. // O'zbek tili va adabiyoti.- 2006.- № 2
14. Никонов В.А. Топонимика в историю- географической этнографии. – М., 1964.
15. Nurmonov A. O'zbek tilining fonologiyasi va morfonologiyasi. – T.: O'qituvchi, 1990.
16. Otajonova A. Xorazm etnotoponimlari. – T., 1997.
17. Otakkurov. S. Kirgiz sanjirasi.- Bishkek, 1992.
18. Русско-Узбекский словарь. – T.: O'qituvchi, 1972.
19. Серебренников Б.А., Гаджиева Н.З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков.- М.: Наука, 1986 .
20. Словар иностранных слов. - М., 1964.
21. To'ychiboyev B., Hasanov B. O'zbek dialektologiyasi. – T., 2004.
22. "U kim? Bu nima?". Bolalar ensiklopediyasi. I tom.- T., 1987.
23. Узбекско-Русский словарь. – T., 1988.
24. Chingiz Aytmatov. Oq kema. – T.: Sharq, 2003.
25. Shoniyozov K. Qang' davlati va qang'liklar. –T.: Fan, 1990.
26. Hojiyev A. O'zbek tili so'z yasaliş tizimi. – T.: O'qituvchi, 2007.
27. Qirg'izlar.- Bishkek, 1999